



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e
LIBRARY.RU

VOYAGA YETMAGANLARNI HUQUQ VA MANFAATLARINI TA'MINLASHDA JINOIY-HUQUQIY SIYOSATNING AHAMIYATI

ASHUROVA Nilufar O'ktamovna
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

For citation (иқтибос келтириш учун, для цитирования): ASHUROVA N.O'. Voyaga yetmaganlarni huquq va manfaatlarini ta'minlashda jinoiy-huquqiy siyosatning ahamiyati // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2025) B. 98–103.

 3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning jinoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashning dolzARB muammolari hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlari tahlil qilingan. Muallif voyaga yetmaganlarga nisbatan huquqbazarliklar va jinoyatlarning oldini olish, ularni huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan muhofaza qilish masalalariga kompleks yondashadi. Maqolada Belsov, Andreev, Ryabova, Seregina, Nikolaeva, Strokov va Alisievich kabi taniqli huquqshunos olimlarning qarashlari tahlil qilinib, ularning afzal va kamchilik tomonlari tanqidiy o'rganiladi. Shuningdek, bolalarga nisbatan transmilliy jinoyatlar (odam savdosi, ekspluatatsiya, majburiy mehnat va h.k.) va ularga qarshi kurashishda xalqaro huquqiy mexanizmlarning ahamiyati yoritilgan. O'zbekistonda demografik o'zgarishlar sharoitida voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning samarali usullari taklif qilinadi. Muallif huquqiy ta'sir etuvchi choralarни faqat jazoga qaratmasdan, balki profilaktik va tarbiyaviy vositalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi. Maqola voyaga yetmaganlar bilan ishslashda zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, huquqiy siyosat, jinoyat-huquqiy himoya, ijtimoiy xavfsizlik, repressiv choralar, preventiv yondashuv, xalqaro normalar, huquqiy madaniyat, multidisiplinar yondashuv, rehabilitatsiya, fuqarolik jamiyati.

THE ROLE OF CRIMINAL-LEGAL POLICY IN ENSURING THE RIGHTS AND INTERESTS OF MINORS

ASHUROVA Nilufar Uktamovna
Associate Professor of the Department of "Criminal Law Disciplines,"
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

ANNOTATION

This article analyzes current problems in ensuring the criminal-legal protection of minors in the Republic of Uzbekistan and the priority directions of state policy in this area. The author approaches the issues of preventing offenses and crimes against minors, their legal, social, and psychological protection comprehensively. The article analyzes the views of renowned legal scholars such as Belsov, Andreev, Ryabova, Seregina, Nikolaeva, Strokov, and Alisiyevich, critically examining their advantages and disadvantages. Transnational crimes against children (human trafficking, exploitation, forced labor, etc.) and the importance of international legal mechanisms in combating them are also highlighted. In Uzbekistan, effective methods for protecting the rights of minors in

the context of demographic changes are being proposed. The author substantiates the necessity of combining legal impact measures not only with punishment but also with preventive and educational measures. The article contains scientific and practical recommendations aimed at forming modern approaches in working with minors.

Keywords: minors, legal policy, criminal-legal protection, social security, repressive measures, preventive approach, international norms, legal culture, multidisciplinary approach, rehabilitation, civil society.

РОЛЬ УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

АШУРОВА Нилуфар Уктамовна

доцент кафедры “Уголовно-правовых дисциплин”,
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются актуальные проблемы обеспечения уголовно-правовой защиты несовершеннолетних в Республике Узбекистан и приоритетные направления государственной политики в этой области. Автор комплексно подходит к вопросам предупреждения правонарушений и преступлений в отношении несовершеннолетних, их правовой, социальной и психологической защиты. В статье анализируются взгляды известных ученых-правоведов, критически исследуются их преимущества и недостатки. Также освещается транснациональные преступления против детей (торговля людьми, эксплуатация, принудительный труд и т.д.) и значение международных правовых механизмов в борьбе с ними. В Узбекистане предлагаются эффективные методы защиты прав несовершеннолетних в условиях демографических изменений. Автор обосновывает необходимость сочетания мер правового воздействия не только с наказанием, но и с профилактическими и воспитательными средствами. В статье содержатся научные и практические рекомендации, направленные на формирование современных подходов в работе с несовершеннолетними.

Ключевые слова: несовершеннолетние, правовая политика, уголовно-правовая защита, социальная безопасность, репрессивные меры, превентивный подход, международные нормы, правовая культура, мультидисциплинарный подход, реабилитация, гражданское общество.

Zamonaviy davrda O'zbekiston Respublikasida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar jarayoni shaxsnинг huquq va erkinliklarini har tomonlama kafolatlangan tarzda himoya qilish masalasini barcha huquq tarmoqlari uchun ustuvor yo'naliishga aylantirmoqda. Ayniqsa, oilaning va voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy-huquqiy himoyasi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur yo'naliishda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari oilani iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bunda voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki yetuk, sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish – jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, oila institutining mustahkamligi va voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy ta'sirlardan himoyalangan muhitda kamol topishi davlat barqarorligi va ijtimoiy xavfsizlikning asosi bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan davlat tomonidan bu boradagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish va ularni institutsional hamda normativ jihatdan yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlar, ularning ko'lami va ijtimoiy xavflilik darajasi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi hamda huquqiy madaniyati uchun jiddiy tahdid

tug'dirmoqda. Bu turdagı jinoyatlar nafaqat yosh avlodning jismoniy va ruhiy salomatligiga, balki ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalda ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosati samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundan iboratki, voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat alohida shaxsga zarar yetkazish, balki jamiyatning umumiyligi axloqiy va ijtimoiy strukturasiga putur yetkazish bilan ham tavsiflanadi. Bu esa o'z navbatida davlat organlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar faoliyatini murakkablashtirib, ularning zimmasiga qo'shimcha tashkiliy va normativ yuklamalarni yuklaydi.

Shu nuqtai nazardan olganda, tadqiqotchi D.V.Beltsov ta'kidlaganidek, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etilishi ularni himoya qilish tizimining ichki muvozanatini izdan chiqaradi, bu esa ushbu toifadagi jinoyatlarga oid javobgarlik mexanizmlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [1].

Bizning fikrimizcha, Beltsovning ushbu yondashuvi huquqni muhofaza qilish tizimining javobgarlik yukini aniqlashda muhim bo'lsada, bu muammoni kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqish zarur. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashda nafaqat jazolash choralar, balki ijtimoiy himoya, psixologik yordam va pedagogik ta'sir vositalarini uyg'unlashtirgan ko'p bosqichli tizim joriy qilinishi lozim.

Shuningdek, mazkur toifadagi jinoyatlarning oldini olishda oilaviy muhitni sog'lomlashtirish, maktab va mahalla tizimi bilan hamkorlikni kuchaytirish, bolalarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham alohida ahamiyatga ega.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, Beltsov tomonidan ilgari surilgan ilmiy xulosalar amaliy faoliyat uchun zarur konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, zamonaviy sharoitda voyaga yetmaganlar bilan ishslashda multidisiplinar va preventiv yondashuvlarni rivojlantirish, jinoyatga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur o'rganish bilan bog'liq masalalarni ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtai nazardan olganda, jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy siyosatning strategik o'rni beqiyosdir. Voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish – nafaqat ijtimoiyadolatni qaror toptirish, balki jamiyatning kelajak avlodini xavfsiz va barqaror muhitda tarbiyalash uchun ham muhim kafolat hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar jamiyatning eng zaif ijtimoiy qatlamlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu sohadagi jinoyat-huquqiy siyosatni shakllantirishda alohida e'tibor va izchil yondashuv zarur bo'ladi.

Ayni vaqtida global miqyosda bolalar huquqlarining buzilishi bilan bog'liq holatlar keskinlik kasb etmoqda. Xususan, xalqaro internet manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jahonda taxminan 250 million bola maktab ta'limi o'rni turli shakllardagi mehnat faoliyatiga jalb etilgan. Ulardan 5,7 millioni majburiy mehnat sharoitida ishlamoqda, 70 milliondan ortiq bola umuman maktab ta'limidan chetda qolgan, 1,8 million bola esa foishhalik va pornografik faoliyatga majburiy tarzda jalb etilgan. Eng ayanchlisi shuki, har yili 1,2 million bola odam savdosi qurbaniga aylanmoqda [2].

Bu ko'rsatkichlar bolalarga nisbatan sodir etilayotgan transmilliy jinoyatlarning miqyosi va ijtimoiy-huquqiy xavf darajasining nihoyatda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarni ekspluatatsiya qilish, ularni jinoyatning bevosita obyektiga aylantirish holatlari insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy tahdid bo'lib, ularni bartaraf etish xalqaro hamkorlikka asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, bolalar huquqlarini himoya qilishga doir huquqiy siyosat milliy chegaralardan tashqariga chiqib, xalqaro huquq normalari, inson huquqlari bo'yicha konvensiyalar

va global profilaktika mexanizmlariga tayanishi lozim. Bu jarayonda davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, jinoyatchilikka qarshi xalqaro monitoring tizimlari va nogiron, muhojir yoki yetim bolalar bilan bog'liq alohida himoya choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xalqaro holatlar fonida O'zbekiston Respublikasida aholining demografik tarkibida bolalar salmoqli o'rinni egallashi ushbu masalaga yanada jiddiyroq yondashishni taqozo etadi. Jumladan, rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz aholisi tarkibining 36,6 foizini — ya'ni 12 157 063 nafarini 0 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Ularning 51,7 foizi (6 279 778 nafar) o'g'il bolalar, 48,3 foizi (5 877 285 nafar) esa qiz bolalardir. Yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilganda esa bolalarning 10,7 foizi 0–4 yosh, 9,6 foizi 5–9 yosh, 8,6 foizi 10–14 yosh va 7,7 foizi 15–18 yosh toifasiga kiradi [3].

Bu demografik tarkib O'zbekistonda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy siyosatni shakllantirishda asosiy strategik omillardan biri sifatida qaralishi kerakligini ko'rsatadi.

Bunday yuqori demografik ulush shuni anglatadiki, mamlakatda har qanday huquqiy islohot, jinoyatga qarshi kurash, ta'lim siyosati yoki ijtimoiy himoya tizimi bolalar manfaatlari bilan bevosita bog'liq holda ishlab chiqilishi zarur. Ayniqsa, jinoyat-huquqiy siyosat doirasida bolalarning huquqlarini to'liq himoya qiluvchi, ularni ekspluatatsiyadan, zo'ravonlikdan, befarqlikdan himoyalovchi kompleks yondashuvlar ustuvorlik kasb etishi kerak.

Mazkur yondashuvni oqlovchi asosli mulohazalarni taniqli rus huquqshunosi V.L. Andreyev o'z asarlarida quyidagicha ifodalagan: "Voyaga yetmaganlar o'z maqomi, shuningdek, yosha doir, ijtimoiy va psixologik jihatdan yetilmaganlikka xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari tufayli davlat g'amxo'rliги va maxsus jinoyat-huquqiy himoya bilan qamrab olinishi lozim".

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, V.L. Andreyev tomonidan ilgari surilgan ushbu ilmiy mulohaza voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki voyaga yetmaganlar, o'zlarining biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan yetilmaganligi sababli, jinoiy tahdidlar oldida zaif bo'lgan toifa sifatida alohida huquqiy himoyaga muhtojdirlar. Shu bois davlat tomonidan ularni umumiyl tartibdagi himoya tizimiga emas, balki maxsus jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali himoya qilish, nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillariga, balki inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalarga ham to'liq mos keladi.

M.V. Ryabova va E.V. Seregina o'z ilmiy izlanishlarida ta'kidlaganidek, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi jinoyat-huquqiy kurash, o'sib kelayotgan avlodning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir [4, B.61-66].

Mazkur fikr bizning ilmiy qarashlarimiz bilan to'liq uyg'unlashadi. Zero, voyaga yetmaganlar jinoyat tahdidlariga nisbatan zaif toifa sifatida e'tirof etilar ekan, ularga qarshi sodir etiladigan har qanday huququzarliklar nafaqat ularning shaxsiy xavfsizligiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga tahdid soladi. Shu boisdan, davlat siyosatida ayni yo'nalishni ustuvorlashtirish, ya'ni voyaga yetmaganlar manfaatlarini jinoyat-huquqiy vositalar bilan himoya qilishni institutsional asosda ta'minlash zarurati tobora kuchayib bormoqda. Bunday yondashuv, bir tomonidan, xalqaro huquq normalariga mos keladi, ikkinchi tomonidan esa, keljak avlodning salomat va huquqiy ongli fuqarolar sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Yu.V. Nikolaeva o'z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasiga jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan yondashib, bu jarayonni asosan huquqiy vositalar orqali ta'minlanadigan tizimli himoya sifatida tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishning asosiy vositalari huquqiy tartibga solishning

muhim elementlari bo‘lib, ular tarkibiga quyidagilar kiradi: huquq normalari, huquqiy munosabatlar, individual normativ-huquqiy aktlar, shuningdek, huquqiy ong va huquqiy madaniyat [5].

Mazkur yondashuv, bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq huquqiy siyosatni nazariy asoslashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu fikr voyaga yetmaganlarni himoya qilishda faqat qonunchilik normalari emas, balki huquqiy ong va madaniyat kabi ijtimoiy-psixologik omillar ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shuning uchun, jinoyat-huquqiy himoya tizimi faqat repressiv choralarni emas, balki tarbiyaviy, normativ-ma’rifiy va madaniy vositalarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli yondashuv asosida shakllantirilishi lozim. Bu esa huquqiy davlatning barkamol fuqaroni shakllantirish yo‘lidagi dolzarb vazifalaridan biridir.

A.A.Strokov o‘z ilmiy qarashlarida voyaga yetmaganlarning jinoiy-huquqiy himoyasi tushunchasini keng ma’noda izohlaydi. Unga ko‘ra, bunday himoya bolaning shakllanayotgan shaxsiyati doirasidagi subyektiv huquqlar va qonuniy manfaatlarni kafolatlash vositasi sifatida xizmat qiladigan normalar, huquqiy sanksiyalar hamda yuridik javobgarlik mexanizmlarini o‘z ichiga oladi [6, B.204-205].

A.A.Strokovning voyaga yetmaganlar jinoiy-huquqiy himoyasi masalasiga doir fikrida, bu himoya asosan huquqiy normalar, sanksiyalar va javobgarlik mexanizmlari orqali amalga oshirilishi qayd etiladi. Biroq, bizning nuqtai nazarimizcha, bunday yondashuv juda tor va biryoqlama talqingga ega. Chunki voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini ta’minalash masalasi nafaqat huquqiy sanksiyalar bilan, balki ijtimoiy-pedagogik, psixologik va axloqiy-madaniy vositalar uyg‘unligi orqali hal qilinishi lozim. Jinoyat-huquqiy siyosat, ayniqsa, voyaga yetmaganlar bilan ishslashda preventiv (oldini oluvchi) va restavratsion (qayta tiklovchi) mexanizmlarni markazga qo‘yishi kerak. Aks holda, u faqat jazoga asoslangan repressiv tizimga aylanib, ijtimoiy qayta moslashtirish imkoniyatini cheklab qo‘yadi.

E.S.Alisiyevich ta’kidlaganidek, xalqaro huquqiy hujjatlarda hamda turli sohalardagi milliy qonunchilik normalarida voyaga yetmaganlar aholining himoyaga muhtoj bo‘lgan zaif ijtimoiy toifasi sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuv, avvalo, ularning yoshga doir psixofiziologik o‘ziga xosligi, huquqiy ongingin shakllanmaganligi va o‘z huquqlarini mustaqil ravishda himoya qila olmasligi bilan bog‘liq bo‘lib, davlat tomonidan alohida yondashuv va kafolatlarni taqozo etadi [7].

E.S.Alisiyevichning xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilikda voyaga yetmaganlar aholining himoyaga muhtoj zaif toifasi sifatida e’tirof etilishi haqidagi mulohazasi, shak-shubhasiz, huquqiy siyosatni asoslashda muhim nazariy nuqtani tashkil qiladi. Biroq, bizning nazarimizda, bu yondashuv juda umumiylar xarakterga ega bo‘lib, amaliy mexanizmlarning yetarlicha tahlil qilinmasligi bois, samarali institutsional tizimlarning shakllanishiga to‘liq yo‘l ochmaydi. Chunki voyaga yetmaganlarni faqat “zaif toifa” sifatida talqin qilish, ularning faolligi, ijtimoiy o‘zini ifoda etish qobiliyati va huquqiy subyektivligini rivojlantirish zaruriyatini ikkinchi darajaga tushirib qo‘yadi. Shu bois, zamonaviy huquqiy siyosat nafaqat himoya qilish, balki voyaga yetmaganlarning huquqiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularni huquqiy ijtimoiylashtirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar yaratishga qaratilishi lozim. Bu esa, ularni faqat himoyaga muhtoj emas, balki huquqiy tizimning faol subyekti sifatida qarash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu boisdan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlarning oldini olish, ularni huquqiy himoya qilish va ijtimoiy muhitga qayta integratsiyalash bo‘yicha davlat siyosatida ikki asosiy yondashuv o‘zaro uyg‘unlashtirilishi lozim: birinchisi – himoyaviy, ya’ni voyaga yetmaganlarni jinoyat va zo‘ravonliklardan himoya qiluvchi maxsus jinoiy-huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash; ikkinchisi – faollashtiruvchi, ya’ni ularning huquqiy ongi, huquqiy faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini oshiruvchi tarbiyaviy va institutlashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bunday tizimli yondashuvda voyaga yetmaganlar faqat “himoya qilinadigan obyekt” emas, balki huquqiy jarayonlarda ishtirok etuvchi, o‘z huquq va majburiyatlarini anglaydigan, ijtimoiy faol subyekt sifatida qaralishi zarur. Bu esa davlat siyosatini nafaqat repressiv va profilaktik darajada, balki huquqiy ijtimoiylashtirish va madaniy ongni rivojlantirish bosqichida ham yangicha shakllantirishni taqozo etadi.

Shuningdek, mavjud huquqiy mexanizmlarni amaliyat bilan muvofiqlashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, ta’lim, sog’liqni saqlash, sud-huquq tizimi va mahalla institutlari o’rtasida uzviy aloqadorlikni ta’minalash orqali voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomini kompleks tarzda mustahkamlash mumkin bo’ladi. Bunday strategik yondashuv mamlakatda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim o’rin egallaydi.

O’zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish masalasi ijtimoiy barqarorlik va huquqiy davlat tamoyillarini ta’minalash yo’lida ustuvor strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, ushbu yo’nalishda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy mexanizmlar tizimi yetarli darajada samarali ishlashi uchun ularni multidisiplinar asosda – huquqiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarni uyg’unlashtirgan holda takomillashtirish zarur.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat individual salbiy oqibatlarga, balki jamiyatning axloqiy va ijtimoiy tuzilmasiga tahdid soladigan kompleks xavf sifatida namoyon bo’ladi. Shu sababli davlat siyosatida ushbu toifani faqat himoya qilinadigan obyekt sifatida emas, balki huquqiy tizimning ongli, ijtimoiy mas’uliyatli va faol subyekti sifatida e’tirof etish tamoyilini mustahkamlash zarur.

Ilgari surilgan nazariy qarashlar va xalqaro tajribalar tahlili asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda faqat jazoga asoslangan repressiv choralar yetarli emas, balki huquqiy madaniyatni yuksaltiruvchi, preventiv va ijtimoiy reabilitatsiyaga qaratilgan yondashuvlarni o‘z ichiga olgan kompleks siyosat asosida harakat qilish lozim. Ana shundagina davlatning jinoiy siyosati haqiqiy ijtimoiy adolatga, barqaror taraqqiyotga va sog’lom huquqiy muhitga xizmat qilishi mumkin.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Бельцов Д.В. Уголовная ответственность за преступления несовершеннолетних и против несовершеннолетних // Дис.канд.юрид.наук. – Нижний Новгород, 2008. 233.
2. Исмоилов И., Зиёдуллаев М., Исроилова Н., Азимова Ф. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш: Ўқув амалий қўлланма / Масъул муҳаррир И.Исмоилов. – Т., 2011. – Б-10.
3. Ёдгоров Х., Ўзбекистон Республикаси Олий суди раисининг ўринбосари, Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъати раиси / Вояга етмаган болалар нега жиноят содир етмоқда? кун.уз / Жамият: 02.03.2018.
4. Рябова М.В., Серегина Е.В. Тенденции уголовно-правовой политики в сфере охраны несовершеннолетних от преступных посягательств. ISSN 0321–3056 Известия вузов. Северо-кавказский регион. Общественные науки. 2014. № 2.
5. Николаева Ю. В. Механизм уголовно-правовой защиты интересов несовершеннолетних требует системного подхода // Современное право. 2010. № 10. URL : [https://www.sovremennoepravo.ru/m/artycles/view/Механизм уголовно-правовой защиты интересов несовершеннолетних требует системного подхода](https://www.sovremennoepravo.ru/m/artycles/view/Механизм%20уголовно-правовой%20защиты%20интересов%20несовершеннолетних%20требует%20системного%20подхода).
6. Строков А.А. Преступления против несовершеннолетних. Характеристика зарубежного зако нодательства в вопросах совершения преступлений против несовершеннолетних по аналогии с главой 20 Уголовного кодекса Российской Федерации // Проблемы в российском законодательстве. 2008. № 2.
7. Алисиевич Е.С. К вопросу об определении понятия «уязвимые группы» в международном праве прав человека // Евразийский юридический журнал. 2013. № 1. С. 29–33; Путилов П.Н. Нормальное развитие несовершеннолетних как объект уголовно-правовой охраны: автореф. дис. ... к. ю. н. Омск, 1999. С. 3.

YURIST AXBOROTNOMASI
3-SON 5-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 3, ВЫПУСК 5

LAWYER HERALD
VOLUME 5, ISSUE 3

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416